

O‘ZBEK TILIDA “AYOL” KONSEPTI VA UNING MAQOLLARDA VOQELANISHI

Ohunova Nozima Alisher qizi

Farg‘ona davlat universiteti Chet tillari fakulteti

Ingliz tili kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: akhunovanozima@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20610048>

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi “ayol” konseptining lingvokognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari hamda uning xalq maqollarida voqelanishi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ayol konseptining milliy tafakkurdagi o‘rni, uning turli ijtimoiy va oilaviy rollar orqali namoyon bo‘lishi hamda maqollarda aks etgan semantik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, ayol obrazining o‘zbek xalqining qadriyatlari, urf-odatlar va madaniy qarashlari bilan uzviy bog‘liqligi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: ayol konsepti, maqol, lingvokulturologiya, gender, milliy tafakkur, ayol obrazi, xalq og‘zaki ijodi.

Asosiy qism

Tilshunoslikda konsept tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol qo‘llanila boshladi. Konsept inson tafakkurida shakllangan va til vositasida ifodalanadigan murakkab mental birlik sifatida talqin etiladi. Bugungi kunda kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya yo‘nalishlarida konseptlarni o‘rganish muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi.

Jahon tilshunosligida “oila”, “ona”, “farzand”, “ota”, “vatan” kabi madaniy konseptlar qatorida “ayol” konsepti ham keng tadqiq etilmoqda. Chunki ayol obrazi har bir xalqning madaniyati, qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim tushunchalardan biridir. Har bir millatda ayolga bo‘lgan munosabat, uning jamiyatdagi o‘rni va vazifalari turlicha bo‘lib, bu holat tilda ham o‘z ifodasini topadi.

O‘zbek tilida ayol konsepti keng semantik maydonga ega. U qiz, ona, opa, singil, amma, xola, buvi, qaynona, kelin kabi turli leksik birliklar orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu nomlar ayolning yoshiga, oiladagi mavqeiga hamda jamiyatdagi rolga qarab farqlanadi. Ayol biologik mavjudot sifatida ham, ijtimoiy shaxs sifatida ham turli vazifalarni bajaradi. Shu sababli u hamshira, o‘qituvchi, olim, shifokor, tadbirkor, tikuvchi kabi kasbiy nomlar orqali ham ifodalanadi.

O‘zbek xalqining ayolga bo‘lgan munosabati xalq maqollarida yaqqol aks etgan. Xususan, “Ayolning joni qirqta”, “Ayol borki, olam munavvar” kabi maqollar ayolning matonati, sabr-toqati va jamiyatdagi muhim o‘rnini ifodalaydi. Shuningdek, qiz farzand tarbiyasi bilan bog‘liq maqollar ham xalq donishmandligining yorqin namunasi hisoblanadi. Jumladan, “Onasini ko‘rib qizini ol”, “Pardali qiz – pariga teng”, “Qizi bor uy sarishta” kabi maqollar orqali qizlarga xos odob, hayo va tarbiya masalalari ulug‘lanadi.

Maqollarda ayolning yoshi bilan bog‘liq qarashlar ham aks etadi. Bu esa xalqning ijtimoiy tajribasi va hayotiy kuzatuvlari asosida shakllangan qarashlarini namoyon qiladi. Ayol konsepti bilan bog‘liq maqollar nafaqat ayolning oiladagi o‘rnini, balki uning jamiyatdagi mavqei, mas‘uliyati va ma‘naviy qiyofasini ham yoritib beradi.

Demak, ayol konsepti o‘zbek tilining muhim lingvomadaniy birliklaridan biri bo‘lib, xalq maqollarida turli qirralarda voqelanadi. Mazkur konsept orqali o‘zbek xalqining ayolga bo‘lgan munosabati, milliy qadriyatlari va madaniy qarashlari namoyon bo‘ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilida “ayol” konsepti murakkab semantik tuzilishga ega bo‘lib, xalq maqollarida turli ma’no qirralari orqali ifodalanadi. Maqollar ayolning oiladagi, jamiyatdagi va madaniy hayotdagi o‘rnini aks ettiruvchi muhim lingvistik manba hisoblanadi. Ayol konseptining maqollarda voqelanishini o‘rganish o‘zbek xalqining milliy tafakkuri va qadriyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Aliyeva G., Eshboeva T. Fransuz tilida “ayol” konseptining kognitiv tahlili // Molodoy ucheniy. – 2020. – №30. – B. 312–317.
2. Qodirova N. O‘zbek tilida farzand konsepti. – Ilmiy maqola.
3. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Toshkent: Fan, 2006.
4. Maslova V. Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiya, 2001.
5. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, turli nashrlar.